



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 18-dekabr, chorshanba,  
144 (24.021)-son

O'zbek xalq  
maqoli

Ishlaganning ishi  
bitar,  
Kishnaganning  
kuni o'tar.

# Zarafshon



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz



## Hosil bayrami

Viloyatimiz qishloq xo'jaligi  
xodimlari "Hosil bayrami"ni  
keng nishonladi.  
Bayram tadbirida tumanlardagi  
soha fidoyilari, ilg'or fermerlar,  
tomorqachi-dehqonlar, agrar  
tarmoq vakillari ishtirok etdi.

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev qishloq xo'jaligi xodimlarini bayram bilan tabriklab, dehqonlarimizning yil davomida erishgan yutuqlari, iqlim o'zgarishi va suv taqchilligiga qaramasdan yuqori hosildorlikka erishilganini e'tirof etdi. Darhaqiqat, dehqonlarimiz joriy yilda paxta, g'alla, poliz-sabzavot, kartoshka, meva, uzum, pilla, go'sht-sut yetishtirishda katta natijalarga erish-

di. Kanallarni betonlash, suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish, eksportbop yangi o'simliklarni mahalliyashtirish, saqlash, qayta ishlash va xorijga sotishni yo'lga qo'yish borasida ham sezilarli yutuqlar qo'lga kiritildi.

Bayram tadbirida soha xodimlaridan bir guruhi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi fidoyisi" ko'krak nishoni va faxriy yo'riq hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Shuningdek, tadbir davomida Samarqand viloyati hokimligi va Toshkent davlat agrar universiteti o'rtasida ilmiy, texnik va amaliy hamkorlik qilish bo'yicha anglashuv memorandumini imzolandi.

Bayram tadbirida O'zbekiston qishloq xo'jaligi vaziri I.Abdurahmonov ishtirok etdi.

O'.XUDOYBERDIYEV.

Bahraynning Manama shahrida kattalar o'rtasida bo'lib o'tgan og'ir atletika bo'yicha jahon chempionatida oltin medalni qo'lga kiritgan toyloqlik sportchi Sharofiddin Amriddinov Samarqandda tantanali kutib olindi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda viloyat va tuman hokimligi mas'ullari, sportchilar, chempionning oila a'zolari ishtirok etdi.

Sharofiddin tug'ilib o'sgan Toyloq tumanidagi Shopo'lat mahallasida o'tkazilgan tadbirda viloyat sport boshqarmasi boshlig'i Sh.Ro'ziyev chempion va uning ustozlari, ota-onasiga viloyat hokimining tashakkurnomasi va qimmatbaho sovg'alarini topshirdi.

Sharofiddin Amriddinov jahon chempionatida -109 kilogramm vazn toifasida dast ko'tarish mashqida 184 kilogramlik toshni bo'yusundirib, jahon chempionligini qo'lga kiritdi. Shuningdek, siltab ko'tarishda 212 kilogramm bilan oltinchi, umumiy hisobda esa 396 kilogramm toshni ko'tarib, reytingda beshinchi bo'ldi.

Aytish joizki, Sharofiddin faoliyati davomida yoshlar o'rtasida jahon

## SHAROFIDDIN AMRIDDINOV — JAHON CHEMPIONI



chempioni, uch karra Osiyo chempioni, Islom birdamligi o'yinlari va xalqaro musobaqalar g'olib va sovrindori bo'lgan.

- Jahon chempionatida yurtimiz sharafini munosib himoya qilganidan va og'ir atletika bo'yicha kattalar o'rtasida samarqandlik ilk jahon chempioni

bo'lganimdan xursandman, - deydi Sharofiddin. - Ushbu g'alaba nafaqat meniki, balki oila-a'zolarim va ustozlarimniki ham. Endi 2028-yilda Los-Anjelesda o'tkaziladigan olimpiya o'yinlarida chempion bo'lishni maqsad qilib qo'ydim.

F.FAXRIDDINOV.



### TAYINLOV

Saidova Zebo Behbudovna - viloyat hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi. Z.Saidova mazkur tayinlovga qadar Samarqand shahar hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i lavozimida faoliyat yuritgan.

### Mulohaza

## Qishga tayyorgarlik ko'rilganmidi?

Kunlar sovimasidan "Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik boshlandi" deb bong urildi, qilinayotgan ishlar ijtimoiy tarmoqlarida televideniya yeda ko'z-ko'z qilinib, mas'ullar odatdagidek va'dalar berdi.



Biroq sovuq tushib, yomg'ir, qor yog'ishi bilan yana elektr lipillab, gaz bosimi pasaydi, ayrim joylarda o'chdi, metan "zapravka"lar ishlamadi, ishlaydiganlarida ham turnaqator navbat, yo'l kira narxlarini oshdi... Xullas, keyingi yillarda qish keldi deguncha shu hol takrorlanaverib, odamlar uchun odatiy hol bo'lib qoldi.

Masalan, bugun uydan chiqish bilan onam aytgan gap: "Fonarga batareya olib kel, kechga svet bo'lmaydi". Ko'chada haydovchilar: "Metan hali-beri ochilmaydi, endi benzin narxi oshmasin". Ishxonada hamkasbim: "Qishloqda uyni o'tin bilan isityapsizlarmi, shaharda tok kam, gaz bosimi past".

Qish haqida gapirib, bo'ya ishonib, sovuqda o'lgan kambag'al esimga tushdi.

Sovuq kechada bir boy uyi oldida qari kambag'alni uchratibdi va so'rabdi: "Sovuq bo'lyapti, issiq kiyinib olmadingizmi?". Kambag'al "Menda issiq kiyim-

lar yo'q, bunga allaqachon o'rganib qolganman...". debdi. Boy "Shu yerda turing, sizga issiq kiyim olib chiqaman", debdi. Kambag'al juda xursand bo'lib, shu yerda kutishini aytibdi. Boy uyiga kirib, o'z ishlarga chalg'ibdi va kambag'alni unutibdi. Tongda esa bergan va'dasi esiga tushib, yugurib ko'chaga chiqibdi. Afsuski, u kambag'alni sovuqdan o'lgan holda topibdi.

U kambag'al odamning oldidan bir qog'ozga yozilgan kichik xatni topibdi. Xatda shunday yozilgan edi: "Men issiq kiyimlarim yo'q payti sovuq bilan kurashish kuchiga ega edim. Chidamli edim. Chunki bunga o'rgangandim. Ammo sizning va'dangizga ishonib qoldim va kurashish kuchimni yo'qotdim! Bajara olmasangiz va'da bermang, iltimos!"

Mas'ullarning qishga tayyorgarlik borasidagi yolg'on va'dasiga o'rganib qolganmiz. Hech bo'lmasa, xalqqa elektr, gaz qachon yonib, qachon

o'chishi haqida oldindan xabar berishsa, odamlarning o'zi qishga yaxshiroq tayyorgarlik ko'risharmidi?!

Mavridi kelganda aytay, shu yil "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali tomonidan viloyatdagi har bir tuman va shaharda OAV va-killari uchun press-tur o'tkazilib, qishga "zo'r" tayyorgarlik ko'rilgani, elektrdan muammo bo'lmasligi haqida hisobotlar berildi. Afsuski, ayni paytda elektr energiyasida kuzatilayotgan uzilishlarni ko'rib turibmiz.

"Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali mas'ullarining ishiga ham shunday baho bersa bo'ladi. Misol uchun, yaqinda o'zim bilgan hududda aholiga maishiy gaz ballonlar tarqatildi. Lekin aksariyat fuqarolar bir hafta o'tmay, ballondagi gaz tugaganidan shikoyat qildi. Bu aholiga tarqatilyotgan gaz balloniga belgilangan miqdorda gaz solinmaganini ko'rsatadi. Vaholanki, maishiy gaz ballonlari ikki oyda bir marta berilyapti. Uni ham aholi ba'zida qachon tarqatilganini yo biladi yoki yo'q.

Viloyatdagi yoqilg'i quyish shoxobchalarini haqida umuman gapirmasa ham bo'ladi. Bu borada viloyatdagi tegishli mas'ullar biror marta hisobot berib, sovuq kunlarda haydovchilarni nima kutayotgani, muammolarga qarshi qanday choralar ko'rilayotgani haqida ma'lum qilganini eslolmayman. Yil bo'yi biror bir mas'ul yoki mutasaddi tashkilot matbuot anjumani, brifing yoki yig'ilish qilib, jamoatchilikka ma'lumot berganini bilmaymiz.

Xullas, qishga tayyorgarlik shunaqa. Ishqilib, endi ikki-uch oy anomol sovuq bo'lmay, qish iliqroq o'tsin. Boshqa narxani kutishimiz noo'rin shekilli.

Fazliddin RO'ZIBOYEV,  
"Zarafshon" muxbiri.

### Munosabat

Bosh Qomusimizda mustahkamlangan ijtimoiy davlat tamoyilining samaralarini bugun har kim o'z turmushi, hayotida his qilmoqda. U yaqin-yaqingacha e'tiborsiz qoldirilgan, jamiyatimiz rivojiga to'siq bo'lgan qator muammolarni hal qilishning muhim vositasiga aylanib ulgurdi. Ayni fikrlar joriy yil 13-dekabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektorda ham ta'kidlandi. Tizimdagi kamchiliklar, galdagi chora-tadbirlar muhokama qilingan yig'ilishda davlatimiz rahbari ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirishga doir muhim tashabbuslarni ilgari jirdi.

## Ijtimoiy himoya tizimi kuchaytiriladi

Xususan, 2025-yilda aholini kambag'allikdan chiqarish uchun yashash sharoitini yaxshilash, ta'lim, to'garak, kasb-hunar, tibbiyot muassasalarini moslashtirish zarurligi ta'kidlandi. Toyloq tumanidagi ilk rivojlanish markazi faoliyati e'tirof etilib, bu tajribani har bir tumanda joriy etish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan mingta mahallada bittadan oilaviy bog'cha faoliyatini yo'lga qo'yish, barcha oilaviy bog'chalardagi o'rinlarning 15 foiziga kambag'al oila farzandlarini qabul qilish belgilandi. Bunda kambag'allarga bog'cha to'lovi qisman qoplab beriladi. Shunday oilalardagi yoshlar chet tili, axborot texnologiyalari va kasb-hunarga o'qitilib, to'garaklar uchun xarajatning 80 foizgacha qismi budgetdan qoplanadi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, bugun kambag'al oilalardagi o'zi harakatlanolmaydigan fuqarolarga yaqinlari g'amxo'rlik qilib, ishga chiqa olmayapti. Viloyatimizda shunday fuqarolarning soni 21 nafarni tashkil qiladi. Yangi yildan ularga uyida va kunduzgi qatnov asosida qarash yo'lga qo'yiladi. Natijada aholida bo'sh vaqt paydo bo'lib, oilasi farovonligini oshirish uchun mehnat qilish va qo'shimcha daromad olish imkoniyati yaratiladi. Jarayonda qarov xizmatini ko'rsatgan xususiy sektorga to'lovning 80 foizini davlat to'lab beradi. Bu tajriba avval Toshkent shahrida, keyin viloyatlarda yo'lga qo'yilishi belgilandi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, hozir fuqarolar ijtimoiy xizmat va yordam olish uchun 10 dan ortiq hujjatni o'zi bilan olib yurishga majbur bo'lmoqda. 2025-yilning 1-iyuligacha ularning o'rniga "ijtimoiy karta" joriy etilishi aytiladi. Mazkur kartaga nafaqa va yordam pullari tushadi. Uning yordamida jamoat transportida bepul yurish, elektr, gaz va o'qish xarajatiga kompensatsiyalar olish ham mumkin bo'ladi.

Bugun viloyatimizda 108469 nafar nogironligi bor fuqaro istiqomat qiladi. Ularning 1395 nafari reabilitatsiya qilinib, 12211 nafariga protez va reabilitatsiya vositalari berilgan. Yig'ilishda qator tumanlarda bu

boradagi qamrov kamligi aytilib, har bir viloyat va tuman shifoxonasida reabilitatsiya xizmatlari yo'lga qo'yilishi belgilandi. Prezident topshirig'iga muvofiq, nogironlik reabilitatsiya markazlarida ergoterapiya, fizioterapiya, davolash-gimnastika xizmatlari qamrovi 5 karra oshirilib, tibbiyot oliy-ohlarida reabilitatsiya kafedralari ochiladi. Shu bilan birga, nogironi bor oilalarga maxsus mashqlar dasturi va sog'lom ovqatlanish menyusi tarqatiladi. Nogironligi borlarga beriladigan protez va reabilitatsiya vositalari ro'yxati ham 37 taga yetkaziladi.

Shunday fuqarolarning bandligini ta'minlash maqsadida 1-yanvardan nogironligi bo'lgan ishchilar uchun ijtimoiy soliq 1 foiz etib belgilanmoqda. Korxonalariga surdo-tarjimon, psixolog va ko'zi ojizlar uchun hamrohlik xizmati xarajatiga 50 million so'mgacha subsidiya ajratiladigan bo'ladi. Bundan tashqari, nogironligi borlarga tavsiya etiladigan sport turlari kengaytiriladi. Hozir bizda bor-yo'g'i 22 ta paraspport bo'yicha tibbiy xulosa berilmoqda. Birgina viloyatimizda 2729 nafar fuqaro paraspportga jalb qilingan. Endi nogironligi borlarning bunga layoqati kasallik turiga qarab avtomatik belgilanadi. Natijada nogironligi borlarning paraspportga qamrovi yanada ortadi.

Yig'ilishda nogironligi bor bolalarni ta'lim bilan qamrab olish masalasi ham esdan chiqmadi. Buning uchun har bir tumanda bittadan bog'chada inkluziv ta'lim guruhi ochilishi, harakati cheklangan bolalarning maktabga kelib-ketish xarajatining 75 foizini qoplash tizimi joriy qilinishi aytiladi.

Bir so'z bilan aytganda, Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilyotgan shu va boshqa tashabbuslar sohani jahon talablariga moslash, Yangi O'zbekistonni nafaqat ijtimoiy, balki dunyoviy davlat sifatida taraqqiy etishi yo'lidagi muhim qadam hisoblanaadi. Asosiysi, bu islohotlar, avvalo, mamlakatimizda inson qadriini oshirish, uning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan.

Shuxrat ABBOSOV,  
Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat  
boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari.

# 300 ta oilaviy nodavlat bog'cha yopildi

yoxud ko'p qavatli uylarda bolalar bog'chasi ochish mumkinmi?

**Atrofimizda oilaviy nodavlat bog'chalar soni oshmoqda. Nega? Bolalar bog'chasi ochish osonmi? Oilaviy bog'chalardagi ta'lim-tarbiya sifati me'yoriy talablarga javob beradimi kabi savollar barchani birdek qiziqtiradi. Shu va boshqa savollarga viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining maktabgacha ta'lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish shu'basini boshlig'i Furqat Jiyonov javob berdi.**

**- Samarqand shahar Qorasuv massivida oilaviy nodavlat bog'chalar ko'p, shuningdek, bog'cha yoshidagi bolalar ham. Ko'p qavatli uylarda oilaviy bog'cha ochish mumkinmi?**

- Vazirlar Mahkamasining 2022-yildagi 2-avgustdagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat xususiy-sheriklik munosabatlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida sodalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish tartibi belgilangan. Qorasuv massivida ko'p qavatli uylarning birinchi qavatida ochilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari ushbu qaror chiqqunga qadar ochilgan. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti ochish uchun tadbirkor vazirlik bilan uch yillik shartnoma imzolaydi. Qarorga ko'ra, bog'chaning yashash xonasining maydoni har bir bola uchun uch metr kvadratdan bo'lishi, o'yin maydoni bo'lishi ko'rsatib o'tilgan. Qorasuvdagi ko'p qavatli uylarda ochilgan oilaviy bog'chalarda bolalar uchun o'yin maydoni, yer maydoni, bissetkalar yo'q. Ertalabki sayr yoki yogzi sog'lomlashtirish mavsumida bolalarni toza havoda chiqqirish uchun hech qanday sharoit mavjud emas.

**- Unda nega ko'p qavatli uylarda oilaviy nodavlat bog'cha ochishga ruxsat berilgan?**

- Sababi ushbu hududda asosan yosh oilalar istiqomat qiladi. Massivda birinchi 50-maktabgacha ta'lim tashkiloti ochilgan vaqtida ota-onalardan



ko'plab murojaatlar keldi. O'sha vaqtdagi viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmasining tashabbusi bilan vazirlikka alohida xat bilan chiqilib, Qorasuvdagi ko'p qavatli uylarning birinchi qavatida oilaviy nodavlat bog'chalar ochishga ruxsat so'ralgandi. Massivda maktabgacha yoshdagi bolalar ko'pligini inobatga olgan vazirlik oilaviy nodavlat bog'chalar ochishga ruxsat bergandi. Shunda ham bir shart bilan, ya'ni ota-onalar tomonidan to'lanadigan badal pulining 70 foizi davlat bog'chalarining badal pulidan oshmasligi kerak. Masalan, massivdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining badal puli 286 ming so'm bo'lsa, oilaviy bog'cha bolalarining 25 nafaridan 17 nafari shuncha miqdorda badal puli to'lashi kerak.

**- Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti ochishning eng muhim talablari qanday?**

- Tashabbuskor tadbirkor nodavlat-bog'cha.uz platformasiga onlayn ariza beradi. Bunda tadbirkor yangi ochilayotgan bog'chaning yashash xonalarining sig'imiga e'tibor berishi kerak. Misol uchun, 25 o'rinni oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini ochish uchun yashash xonalarida kamida 75 metr kvadrat bo'lishi lozim. Bunda oshxona, koridor va boshqa qo'shimcha xonalar hisobga olinmaydi. Agar

50 o'rinni bo'ladigan bo'lsa, yashash xonalarida 150 metr kvadrat bo'lishi kerak. Nodavlat-bog'cha.uz platformasi kadastr agentligi bilan integratsiya qilingan, shuning uchun tadbirkor ariza bergach, oilaviy bog'cha ochish uchun belgilangan binoning kadastr hujjati ko'rinadi va vazirlik buni tahlil qiladi. Shuningdek, tadbirkorning arizasi sanitariya-epidemiologik osovish-talik va jamoat salomatligi markazi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga borib tushadi. Ushbu soha mutaxassislari uch kun muddatda ochilayotgan bog'chaning sanitariya holati, joylashuvini o'rganib, bu haqda xulosa beradi. Agar me'yoriy talablarga javob bermasa, ushbu tashkilotlar arizani rad etish huquqiga ega.

**- Oilaviy bog'cha tarbiyachilardan mutaxassisligi bo'yicha hujjat so'raladimi?**

- 2018-yildan boshlab oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etilgan bo'lsa, shu vaqtgacha tadbirkorlar xohlagan qarindoshi yoki tanishini pedagog sifatida ishga qabul qilgan. Bir yildan beri aynan mana shu jarayon ham to'liq avtomatlashdi, ya'ni nodavlat-bog'cha.uz platformasidan tadbirkorga bitim imzolanganidan keyin uning ma'lumotlari to'g'ridan-to'g'ri respublika tomonidan BBIT.uz axborot tizimiga o'tadi va unga login-parol beriladi. Login-parol orqali tadbirkor platformaga xodimlari va bog'cha tarbiyalanuvchilari haqidagi ma'lumotlarni kiritadi. Shuningdek, pedagog sifatida ishga qabul qilinayotgan xodimning diplom va ilovasini platformaga yuklaydi. Keyin diplom.edu.uz orqali diplom bergan tashkilot uch kun muddat ichida uning haqiqiylikni ko'rib chiqadi. Haqiqatda diplom o'sha muassasa tomonidan berilgan bo'lsa, uni tasdiqlab beradi. Diplomning haqiqiylikni tasdiqlangach, nodavlat-bog'cha.uz platformasida u avtomatik ravishda ko'rinadi. Agar xodim pedagog bo'lmasa, tadbirkor uni pedagog sifatida ishga ololmaydi. Pedagog bo'lmagan xodimlar oilaviy bog'chalarda yordamchi tarbiyachi sifatida ishlayishi mumkin.

**- Oilaviy bog'chalarda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari singari mashg'ulotlar o'tiladimi?**

- Oilaviy, xususiy, davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagidek bir xil. Barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar "ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida olib boriladi. Shuningdek, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagoglari uchun seminarlar tashkil qilyapmiz. 2025-yildan boshlab Toyloq pedagogika kollejida hududiy malaka oshirish markazi tashkil etyapmiz va barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining malakasini oshirishni rejalashtiryapmiz. Bugungi kunda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarimizda qariyb olti mingga yaqin pedagoglar mehnat qilyapti.

**- Oilaviy bog'cha taomnomasini kim tuzadi?**

- Nodavlat-bog'cha.uz platformasi bolaga kerak bo'ladigan bir kunlik mahsulotlarning ro'yxati va unga sarflanadigan mablag'ni chiqarib beradi. Oilaviy nodavlat bog'chada xodimlarning ishga kelib-ketishini hisobga olish hamda tarbiyalanuvchilarning davomatini yuritish mobil ilova yordamida shaxsni biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasi orqali amalga oshiriladi. O'zining oxirida mahalliy budget mablag'lari hisobidan tadbirkorga oziq-ovqat pullari qoplab beriladi. Bundan tashqari, har bir oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini o'zining hududidagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga birlashtirganimiz. Metodika yoki taomnoma tuzish bo'yicha yordam kerak bo'lsa, davlat bog'chasiga murojaat qiladi. Ota-ona to'laydigan badal pulidan tashqari, bir bolaga bir kunga davlat tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari uchun 14 ming so'mdan qoplab beriladi.

**- Oilaviy bog'chalar qancha bola qabul qilishi mumkin?**

- 12 nafardan 50 nafargacha bola olishi mumkin. 50 nafardan ortiq bola qabul qilish mumkin emas. Bu yuqorida aytganimgdek, xonaning kvadrat metriga qarab hisoblanadi.

**- Oilaviy bog'chalarga 3 yoshga to'lmagan bolalar ham qabul qilinadimi?**

- Ha, albatta. Bu haqda Vazirlar Mahkamasining yuqorida keltirilgan qarorida belgilangan, ya'ni 2 yoshdan oshgan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarni oilaviy bog'chalarga qabul qilish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkiloti to'liq quvvatda ishlamayotgan bo'lsa, masalan, 25 o'rinni bog'chaga 18 nafar 3 yoshga to'lgan bola qatnayotgan bo'lsa, qolgan quvvatga 2 yoshli bola qabul qilsa bo'ladi. Lekin 2 yoshli bolalar uchun davlat tomonidan subsidiya to'lab berilmaydi. Bu tadbirkor va ota-ona o'rtasidagi kelishuv asosida amalga oshiriladi.

**- Oilaviy bog'chalarni kim nazorat qiladi?**

- Nodavlat-bog'cha.uz platformasida onlayn tarzida barcha ma'lumotlar, ya'ni bog'chaga qancha bola, xodimlarning qanchasi ishga kelgani, ishdan ketgani ko'rinadi. Bundan tashqari, maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasida va uning tuman (shahar) bo'limlarida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan ishlaydigan xodimlar bor. Ular orqali ham oilaviy nodavlat bog'chalar to'liq nazorat qilib boriladi.

Bitim shartlariga ko'ra, bir bolaning o'rni boshqa bolani rasimga olib, davomatga qo'shib yuborilsa, birinchi holatda 3 oy muddatgacha davlat tomonidan subsidiyalari berilmaydi. Bu holat tadbirkor tomonidan yana amalga oshirilsa, u bilan tuzilgan bitim vazirlik tomonidan bekor qilinadi va qayta bitim tuzilmaydi.

**- Bugun viloyatda qancha oilaviy bog'chalar bor? Joriy yilda qancha oilaviy bog'cha ochildi va qanchasining faoliyatiga chek qo'yildi?**

- Viloyatda bugun oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ulushi 40 foizga yaqin, ya'ni 100 mingdan ortiq maktabgacha yoshdagi bolalarni oilaviy bog'chalar qamrab olgan. Raqamlarga to'xtaladigan bo'lsa, viloyatda 3421 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti ro'yxatdan o'tgan. Shundan hozirgi kunda 300 ta oilaviy bog'cha faoliyatini o'tatgan. Ba'zi holatda oilaviy nodavlat bog'cha tadbirkor tomonidan o'z xohishiga ko'ra yopilgan bo'lsa, ayrimlari bitim shartlariga rioya etmagani uchun vazirlik tomonidan to'xtatilgan. Yil davomida 288 ta oilaviy shakldagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etildi.

**- Qorasuv massivida aholi yildan yilga ko'paymoqda. Tabiiyki, bolalar bog'chalari aholi ehtiyojini qondirmayapti. Yaqin yillarda massivda yana davlat bog'chalari quriladimi?**

- Joriy yilda 300 o'rinni 51-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti foydalangan bo'lsa, natijada 1,5 ming bola bor. Bu albatta, massivda davlat bog'chasiga bo'lgan talab yuqorilgani ko'rsatadi. Bu bo'yicha takliflarimizni berganimiz. Keyingi yilgi dasturlarda bu taklif inobatga olinadi, degan umiddamiz. Bundan tashqari, massivda ayni paytda tadbirkor tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida bolalar bog'chasi qurilmoqda.

Xurshida ERNAZAROVA suhbatlashdi.

## "O'zing uchun o'l yetim"

yoki qonun faqat kadastr uchunmi?

**Xabaringiz bor, 2024-yil 8-noyabrdan "O'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi Qonun kuchga kirdi. Unga qadar joylarda targ'ibot, tushuntirish va tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi. Qonunga ko'ra, hokimlar taklifi bo'yicha tasdiqlangan reja-jadval asosida davlat organlarining o'zi joylarga chiqib, hujjatsiz yer uchastkalari va uy-joylarni o'rganish ishlarini amalga oshiradi. Biz ham ushbu jarayonda bevosita ishtirok etish uchun Jomboy tumanida bo'ldik.**

Tumandagi 38 ta mahallada 190 ming aholi istiqomat qiladi. Tasdiqlangan reja-jadval asosida noyabr dekabr oylarida tumanning Saroy va Polvonariq mahallalarida xatlov amalga oshirilishi belgilangan.

- Saroy mahallasida 837 turar, 42 ta noturar joy, 30 ta qurilishi tugallanmagan obyekt bor, - deydi davlat kadastrlari palatasi tuman filiali boshlig'i Farhod Ishmirzayev. - Obyektlarni xatlovdan o'tkazish uchun har biri 3 nafar mutaxassisidan iborat 6 ta guruh shakllantirganimiz. Guruh kuniga 6 ta obyektning xatlovdan o'tkazadi. Bitta obyektning xatlovdan o'tkazishga o'rtacha 30 daqiqa vaqt sarflansa, uning chizmalarini tayyorlash uchun 3-4 soatdan ortiq vaqt talab etiladi.

Xatlov o'tkazilishi belgilangan Saroy mahallasida 781 xonadon bor. Mahalla tarkibida 4 ta qishloq, 30 ta katta-kichik ko'cha mavjud, 11 ta ko'chaboshi tayinlangan. Biz borganimizda Saroy mahallasi A.Qurbonov 2-berk ko'chasi 3-uy (Sherzod Shohimardonov xonadoni)da xatlov ishlari amalga oshirilmog'chi ekan. 8 sotix maydonda joylashgan xonadon tabiiy gaz tarmog'iga ulangan. Kadastr mutaxassislari "Kalida K7" JPS qurilmasi bilan xonadonning chegaralariga nuqtalar belgiladi, metrlab xonalar o'lchamlari o'lindi, konstruksiyasi, umumiy kvadrat, balandlik kabi ma'lumotlar tizimga kiritildi. Olingan ma'lumotlar asosida ko'chmas mulkni xatlov yo'li bilan texnik inventarizatsiyadan o'tkazish natijasida tuzilgan (ABRIS) hujjat asosida kadastr pasporti shakllantirildi. Umumiy olganda, bitta obyektning xatlovdan o'tkazish uchun 20-30 daqiqa vaqt sarflandi.

Mutaxassislar bilan jarayonni kuzatish uchun

navbatdagi xonadonga yo'l oldik. Ammo uy egasi boshqa joyga ishga ketgan, uy bekasi esa kadastr hujjatlari borligini aytmoqda. Mutaxassislar bu soliq to'lovchi sifatida tayyorlangan inventar hujjat ekanligini, xatlov natijasida uyning kadastr pasporti shakllantirilishini tushuntirishga urinish ham samara bermadi. Uy bekasi turmush o'rtog'i yo'qligi va mahalladan ham vakil bo'lmaganligi uchun uyga hech kimni kiritolmasligi tufayli bu xonadonda xatlov o'tkazilmasdan qoldi. Shu ko'chada yangi qurilgan xonadon kimga tegishli ekanligini aniqlab ham bo'lmadi.

Mutaxassislar xatlov ishlari boshlangan kundan buyon shu kabi holatlar ko'p uchrayotganini aytishmoqda. Qonun qabul qilinganiga uch oydan oshdi. Shu vaqt davomida targ'ibot, tushuntirish tadbirlari olib borildi, nazorat qiluvchi organlardan mas'ullar birlashtirish belgilandi, ammo hech bir mas'ulni jarayonda uchratmadik. Mahalladan ham biror kishini topmadik. Qo'ng'iroq'imizdan biroz o'tib kelgan mahalla raisi Jamol Yo'ldoshev ko'mirga ketganini bildirdi. Mahallada xatlov o'tkazish rejasini tuman hokimligi tomonidan taklif etilgan va bu taklif tasdiqlangan. Lekin shu paytgacha xatlov jarayoniga mahalla faollari ham, ko'chaboshilar ham, mas'ullar ham ko'mak ko'rsatmayapti.

Mana shunday holatlarning oldini olish uchun qonunda ish davomida yuzaga keladigan joriy masalalarni hal qilish maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi qarori bilan barcha vakolatli organlarning tuman bo'linmalaridan iborat Ishchi guruhlar tuzishi belgilangan.

Prokuratura, ichki ishlar, agrospeksiya, ekologiya, kadastr organlari qonunni amalga oshirishda davlat nazoratini o'rnatishi kerak.

Ma'lumot o'rinda, yil yakunigacha tumanning Polvonariq mahallasida ham xatlov o'tkazish belgilangan va ushbu mahalla tuman markazidan 30 kilometr olisda joylashgan.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

## Yuzimizdagi "dog'"ni qachon tozalaymiz?

**Qadimda sayyoho elchilar biror davlatning qudrati, xalqining ma'rifati madaniyati haqida bilishni istasa, xalqini ko'zdan kechirgan ekan. Aynan bozorlar shu yurtning yuzi hisoblangan. Shu bois ularning obodligi, tartibli, sotuvchi va xaridorlarning madaniyati hamma zamonlarda ham umume'tiborda bo'lgan.**

Keyingi yillarda mamlakatimiz, xususan, viloyatimizda bozorlarni obodonlashtirish, ularni tarix va zamonaviylikni uyg'unlashtirgan maskanlarga aylantirish masalasi kun tartibidan tushmay kelmoqda. Bu borada hukumat qarorlari qabul qilindi, manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Ammo barcha sa'y-harakatlarga qaramay, belgilangan tartib va me'yorlarga hamma joyda bir xil amal qilinmaypti, deya olmaymiz.

Viloyat sanitariya-epidemiologik osovish-talik va jamoat salomatligi boshqarmasi tomonidan joriy yilning o'tgan davrida o'tkazilgan nazorat tekshiruvlari ayni fikrimiz isboti bo'la oladi. Jumladan, Toyloq tumanidagi "Toyloq", "Jumabozor", Urgut tumanidagi "Dehqonobod", Paxtachi tumanidagi "Chorshanba" dehqon bozorlari va Oqdaryo tumanidagi "Oqdaryo" dehqon bozorining Yangiqo'rg'on filialida fuqarolar hech bir hujjatsiz, arxitektura va shaharsozlik qoidalari zid holda qurilgan bino yoki ko'cha sharoitida sanitariya gigiyena qoidalari rioya etmagan holda kalla-pocha, hasip, no'xat sho'ruva, kabob singari sifati tez bo'ziladigan taomlarni tayyorlab sotayotganligi aniqlandi. Payariq tumanidagi "Chelak" va "Payariq" dehqon bozorining joylardagi filiallarida ham sotuvchilar uy sharoitida tayyorlangan taomlarni belgilangan qoidalarga rioya etmay sotayotganini kuzatildi.

Bulung'ur dehqon bozori va uning Oqtepa filiali, Jomboy dehqon bozorining Jurriyat filiali, Past Darg'om tumanidagi Uch Qora dehqon bozori, "Nurobod" dehqon bozorining Jom va Mehnatkash filiallarida "uddaburon" sotuvchilar boshqa turdagi tadbirkorlik guvohnomasiga ega bo'lgan holda, o'tirish o'rnlarni tashkil etib, bir necha turdagi taomlarni antisaniyariya holatida tayyorlab sotayotganligiga guvoh bo'lasiz. Shu kabi ruxsat berilgan tartibni o'ziga "moslashtirish" holatlarini deyarli barcha bozorda uchratish mumkin.

Prezidentning 2012-yil 28-avgustdagi qarori bilan bozorlardagi savdo o'rnlari jismoniy shaxslarga faqat ularning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomasi mavjud bo'lgan taqdirda berilishi belgilab qo'yilgan bo'lsa-da aksariyat bozorlarda davlat ro'yxatidan o'tmagan "tadbirkor"lar bemalol faoliyat yuritmoqda. Jumladan, Ishtixon va Chelak bozorlarida qo'lda, noma'lum sharoitda tayyorlangan pishiriqlar sotuvi avjida. Hujjatsiz qandolatchilarning o'z mahsulotlarini sifati nazoratizis sotishi va bozorning o'zida tanovul qilishni tashkil etishi Jomboy, Toyloq, Kattaqo'rg'on, Narpay tumanlaridagi bozorlarda ham odatiy holga aylangan.

Ikkilamchi chorvachilik va sut mahsulotlari savdosi Samarqand shahridagi Temiryol, Bulung'ur, Ishtixon tumanlaridagi, Payariq tumanidagi "Chelak" dehqon bozorlarida talab darajasida tashkil etilmagan.

Boshqarmamiz tomonidan viloyatdagi 12 ta bozorda aniqlangan qonunbuzilishi holatlarini yuzasidan 10 nafar bozor mas'uliga ma'muriy bayonnomalar tuzilib, sud idoralariga yuborildi. Har bir bozor rahbariyatiga sanitariya talabnomalari berildi. Shuningdek, nazorat tadbirlari davomida sifatsiz deb topilgan 4096 kilogramm, jumladan, Paxtachi tumanida 593 kilogramm, Ishtixon tumanida 562 kilogramm, Oqdaryo tumanida 634 kilogramm, Toyloq tumanida 847 kilogramm mahsulotning iste'mol uchun ishlatilishi taqiqlandi.

Biz shu bilan bozorlarda tartib o'rnatildi, demochi emasimiz. Bu raqamlar umumiy holatning bir qismini ifoda etadi, xolos. Muammo faqat sanitariyada emasligi, bozorlardagi umumiy muhit ham jiddiy e'tiborga muhtojligi hech kimga sir emas. Ularda qonun ustuvorligi ta'minlanmas, jarayonda jamoatchilik nazorati kuchaytirilmas ekan, "yuz"imizdagi dog' bo'lib qolaveradi. Bozorlarga tartibni, madaniyatni qaytarish uchun bir yoqadan bosh chiqarish vaqt keldi.

**Latif RUSTAMOV, viloyat sanitariya-epidemiologik osovish-talik va jamoat salomatligi boshqarmasi boshlig'i.**

↓ So'ragan edingiz...

## Kimlarga davlat fondidan uy-joy beriladi?

— Uyimiz yo'q. Hozir begona oila bilan ko'p qavatli uydagi bir xonadonda ijarada turamiz. Uy-joyga muhtoj fuqarolarga yordam berilayotganligi haqida eshitgandim. Bizga ham yordam berishadimi?

— Davlat uy-joy fondidan foydalanish yangi tartibga ko'ra, uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolar ro'yxati tasdiqlangan. Bunga turarjoy maydoniga ega bo'lmagan yoki yashash uchun yaroqsiz uy-joylar (barak, vaqtinchalik uy, avariya holatidagi uy, yerto'la) da yashovchi fuqarolar, har bir oila a'zosi 16 kvadrat metrdan, kreslo-aravachada harakatlanadigan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun 23 kvadrat metrdan kam bo'lgan turarjoy bilan ta'minlanganlar, yotoqxonalarida, ishlab chiqarish va xizmat xonalarida yashovchilar (bundan mavsumiy va vaqtinchalik xodimlar, shuningdek, o'qishlari sababli yotoqxonalariga ko'chib o'tgan fuqarolar mustasno), qarindoshlik aloqalari bo'lmagan ikki va undan ko'p oila bo'lib bir kvartirada yashovchilar, ayrim surunkali kasalliklarning og'ir turlari bilan kasallangan fuqarolar hamda uy-joy ajratilayotgan aholi punktida kamida 3 yil yashayotgan va ro'yxatda turgan fuqarolar kiradi.

Davlat uy-joy fondidan foydalanishga arizalar faqatgina Davlat xizmatlari markazi yoki yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul qilinadi.

Bundan tashqari, aniq maqsadli kommunal uy-joy fondidan turarjoy beriladigan fuqarolar ro'yxati ham tasdiqlangan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- 1941-1945-yillardagi urush faxriylari va baynalmilal jangchilar;
- shartnoma bo'yicha harbiy xizmatdan xaziraga bo'shatilgan yoki iste'foga chiqqan harbiy xizmatchilar;
- ayrim surunkali kasalliklarning og'ir

turlari bilan kasallangan fuqarolar;

- ko'p bolali oilalar;
- chin yetim bolalarni vasiylikka olgan oilalar;
- uch nafar va undan ziyod mehnatga layoqatsiz oila a'zolari bo'lgan, boquvchisini yo'qotgan oilalar;
- ishlamaydigan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar;
- keksayib qolgan yolg'iz pensionerlar

- yolg'iz yashaydigan keksalar, voyaga yetmagan bolalar yoxud qamoqda va jazoni ijro etish muassasalarida, uzoq muddat davolanishda bo'lgan shaxslar bilan birga yashaydigan o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan pensiya yoshidagi shaxslar (60 yoshga yetgan erkaklar, 55 yoshga yetgan ayollar);

- bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxs hisoblangan 18 yoshgacha yoki bolalikdan I va II guruh nogironligi bo'lgan bolalar bor oilalar.

Murojaat maxsus komissiya tomonidan 10 kun ichida ko'rib chiqilib, natijasi bo'yicha shaxsni uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarning ro'yxatiga kiritish haqida qaror qabul qilinadi. Murojaatni ko'rib chiqqanlik uchun yig'im undirilmaydi.

Uy-joy fuqarolarga ushbu aholi punktida foydalanishga topshirilayotgan va bo'shayotgan uy-joylarning maydonidan kelib chiqqan holda, ro'yxatda belgilangan navbat asosida taqdim etiladi.

**Savolga Samarqand shahar adliya bo'limi Davlat xizmatlar markazi bosh mutaxassisi Shirin ZAKIRYAYEVA javob berdi.**

**Ustoz shifokor, tibbiyot fanlari nomzodi Botir Saidmurodov hayot bo'lganlarida bugun 70 yoshni qarshilagan bo'lardi.**

B.Saidmurodov 1954-yil Samarqand tumanida tug'ilgandi. O'rta maktabni tugatib, Samarqand tibbiyot institutiga hujjat topshirdi. Talabalik yillaridayoq bemorlarga yordam berishni hayotining mazmuniga aylantirishni his qildi. 1977-yilda institutni bitirib, Samarqand viloyat shifoxonasida jarroh bo'lib ishlay boshladi. Ustozlari yordamida yuzlab amaliyotlarni amalga oshirdi. Sohasining hali ochilmagan qirralarini o'rganishga bel bog'lab, ilmiy ishga ko'l urdi. Ko'p o'tmasdan, tibbiyot fanlari nomzodi bo'ldi.

1983-yilning kuz fasli edi. Samarqand davlat tibbiyot institutidagi talabalik chog'larimda viloyat markaziy shifoxonasining jarrohlik bo'limiga amaliyotga borib turardim. Shifokorlar bilan tanishib, ularga yordam berardim, tibbiy tajribamni oshirishga harakat qilardim. I jarrohlik bo'limining tajribali shifokori Botir aka Saidmurodov bilan yaqindan tanishib, keyinchalik qadrdon bo'lib qoldik. U kishining ishga bo'lgan munosabatiga hayron qolardim. O'z burchi va vazifasiga o'ta mas'uliyat bilan qarardi. Har kuni ertalab soat 6:00 ishxonasida bo'lardi. Palatalarni aylanib, bemorlar holidan xabar olar, o'zgarishlarini yozib qo'yardi. Agar jarrohlik amaliyoti talab qilinsa, shaxsan o'zi bemorni tek-

## To'g'riso'z inson edi

shirib ko'rardi. Har bir bemorga nisbatan alohida yondashuvi bor edi. Yosh vrachlar, amaliyotga kelgan talabalardan maslahat va tavsiyalarini ayamasdi. Bemor ko'ridan o'tkazilgach, yig'ilganlardan "qani fikrlaringni aytinglar-chi", deb so'rardi. Kim to'g'ri fikr bildirsa, operatsiyaga olib kirardi. Jarayon vaqtda ham o'rgatib, yo'l-yo'riq ko'rsatardi.

1991-yilning sentabrida respublika shifoxonalaridan birida ishlab yurgan vaqtlarimda Botir aka Toshkent shahriga kelib, menga qo'ng'iroq qilib, uchrashmoqchi ekanligini aytdi. Ancha gurunglashdik, menga akalarcha maslahatlarini bergandi. Yana bir safar Botir aka malaka oshirish tahsiliga kelganida uchrashgandik.

Botir aka bilan suhbatlarimiz uzoq davom etardi. Hamkasb sifatida ham, tadqiqotchi-shifokor sifatida ham bir-birimizni yaxshi tushunardik, ardoqli xotiralar ham, qiziqarli mavzular ham ko'p edi. Samarqandga borib, qo'ng'iroq qilsam, meni uyiga olib borib, mehmon qilardi.

B.Saidmurodov mehribon ota, ajoyib oila boshlig'i edi. U rafiqasi bilan besh farzandni voyaga yetkazib, tarbiyaladi. Bugungi kunda ularning 4 nafari ota izidan borib, shifokor bo'lib yetishdi. Tajribali jarroh Botir Saidmurodov



oqko'ngil, sofdil inson edi. Yuzidan sira tabassum arimasdi. Rostgo'ylikni, to'g'ri so'zni yaxshi ko'rar, o'zi ham shunga amal qilardi. Butun umrini tibbiyotga, bemorlarni davolashga baxshida etgan jonkuyar inson 1998-yilning 18-yanvarida vafot etgandi.

Samimiy, doim ezgu ishlarni qilgan Botir aka Saidmurodov hayot bo'lganida 70 yoshga to'lgan bo'lardi. Ustozning oxirlari obod, ruhlari shod bo'lsin!

**Zayniddin NORMAN, O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi a'zosi, tibbiyot fanlari nomzodi.**

## Najmiddin XUDOYBERDIYEV

Butun umrini, bor kuch va salohiyatini xalq osoyishtaligiga bag'ishlagan inson, xalqimizning mard va jasur farzandi Najmiddin Xudoyberdiyev 69 yoshida olamdan o'tdi.

Xudoyberdiyev Najmiddin Amirovich 1955-yil 15-aprelda Past Darg'om tumani Gumbaz mahallasida tug'ilgan edi. 1971-yilda tuman-dagi 4-o'rta maktabni tugatgach, mehnat faoliyatini "Juma paxta tozalash zavodi" ishchiligidan boshladi. Harbiy xizmatni o'tab, 1977-1981-yillarda Toshkent Oliy militsiya maktabida o'qidi. 1981-yildan Past Darg'om tumani ichki ishlar bo'limida turli lavozimlarda mehnat qildi. 1994-1996-yillarda tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinbosari lavozimida faoliyat olib bordi. Keyin to'rt yil Samarqand shahar ichki ishlar boshqarmasi jinoiyat qidiruv bo'limi boshlig'i lavozimida ishladi. 1999-2004-yillarda Go'zalkent, Kat-taqo'rg'on va Past Darg'om tumanlari ichki ishlar bo'limlarini boshqardi.

Kasbiy mahorat va tajribada hamkasblariga o'rnak N.Xudoyberdiyev besh yil mobaynida viloyat ichki ishlar boshqarmasida jinoiyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurashish boshqarmasida o'ta muhim ishlar bo'yicha katta tezkor vakil



sifatida xizmat qildi.

N.Xudoyberdiyev ichki ishlar organlarining qaysi tizimida ishlamasin, jinoiyatlarning oldini olish va sodir etilganlarini fosh etishda kasbiy bilim va malakasini namoyish eta oldi. Shu bilan birga, xodimlar o'rtasida xizmat intizomi va qonunchilikni mustahkamlash, yosh xodimlarga kasb sirlarini o'rgatish, kasbga sadoqat tuyg'usini shakllantirishda o'ziga xos tajriba maktabini yaratdi.

N.Xudoyberdiyev "Jasorat" medali, shuningdek, Ichki ishlar vazirligining faxriy yorliqlari, tashakkurnomalari bilan taqdirlangandi.

U 2008-yilda ichki ishlar organlaridan pensiyaga chiqqandan keyin Samarqand shahridagi "Eviksiya qomus" advokatlar hay'ati advokati bo'lib ishladi. Turmush o'rtog'i bilan to'rt farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Farzandlari bugun mamlakatimiz xalq xo'jaligining turli sohalarida mehnat qilmoqda.

Jasoratli inson, militsiya podpolkovnigi Najmiddin Xudoyberdiyevning xotirasi farzandlari, hamkasblari va shogirdlari qalbidayashadi.

**"Nuroni" jamg'armasi Past Darg'om tumani bo'limi va bir guruh do'stlari.**

## Metall o'g'rilari ushlendi

Joriy yilning 3-dekabr kuni soat 00:35da viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi navbatchilik qismiga Jomboy tumanidan o'tuvchi Bulung'ur-Jomboy temir yo'l bekatingi 3695-kilometri 2-3 piketlari oralig'ida noma'lum shaxslar tomonidan yer qazilayotgani ma'lum qilindi.

Tergov tezkor guruhi voqea joyiga yetib borganida, har birining uzunligi 3 metrdan iborat bo'lgan R-65 rusumli 3 dona temir yo'l relsi va N-43 rusumli 3 dona nakladka kavlab olingani aniqlandi. Birlamchi ma'lumotga ko'ra, bu metall ashyolarni Sirdaryo viloyati Yangiyer shahrida yashovchi fuqaro U.K. jinoiy sherigi A.A. bilan, uning boshqaruvida bo'lgan, Jizzax shahrida joylashgan ikkilamchi qora metalni qayta ishlash korxonasiga tegishli "Gazel" rusumli avtomashinaga ortib ketmoqchi bo'lgan.

Metall o'g'rilari voqea joyida ushlendi.

**A. IBRAGIMOV, viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi tezkor vakili, mayor.**

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## TANLOVDA ISHTIROK ETING!

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti quyidagi lavozimlarga tanlov asosida qabul e'lon qiladi:**

**KAFEDRA MUDIRI LAVOZIMIGA:**

1. Ichki yuqumsiz kasalliklar kafedrasini.

**KAFEDRA DOTSENTI LAVOZIMIGA:**

1. Mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi kafedrasini;

2. Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasini;

3. Xususiy zootexniya va yaylov chorvachiligi kafedrasini;

4. Hayvonlar genetikasi, urchitish va oziqlantirish texnologiyasi kafedrasini;

5. Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya kafedrasini.

**KAFEDRA KATTA O'QITUVCHISI LAVOZIMIGA:**

1. Mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi kafedrasini;

2. Farmakologiya va toksikologiya kafedrasini;

3. Hayvonlar genetikasi, urchitish va oziqlantirish texnologiyasi kafedrasini.

**KAFEDRA ASSISTENTI LAVOZIMIGA:**

1. Biotexnologiya kafedrasini;

2. Veterinariya sanitar-taxalluq kafedrasini;

3. Veterinariya farmasevtikasi kafedrasini;

4. Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasini;

5. Iqtisodiyot va menejment kafedrasini;

6. Ichki yuqumsiz kasalliklar kafedrasini;

7. Mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi kafedrasini;

8. Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasini;

9. Parranda, baliq, asalari va mo'ynali hayvonlar kasalliklar kafedrasini;

10. Xususiy zootexniya va yaylov chorvachiligi kafedrasini;

11. Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya kafedrasini;

12. Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar kafedrasini.

Hujjatlar (ariza, shaxsiy varaqa, 2 dona fotosurat, tarjimai hol, oliy ma'lumot, ilmiy daraja va unvonlar haqidagi diplomlar, oxirgi marta malaka oshirganligi to'g'risidagi hujjat nusxalari, ilmiy ishlar ro'yxati) ushbu e'lon chop etilgan kundan boshlab bir oy muddat ichida qabul qilinadi.

**Murojaat uchun manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy. Xodimlar bo'limi. Telefon: +99866-234-93-73.**

**DA'VOLAR BO'LSA...**

Samarqand viloyat adliya boshqarmasidan 2020-yil 22-iyulda 135 reestr raqami bilan ro'yxatga olingan "YURISTOTEL" advokatlik firmasi (qisqartirilgan nomi: "YURISTOTEL" AF) ixtiyoriy ravishda tugatilmogda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

**Advokatlik firmasining pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 48-"A" uy.**

Advokatlik firmasining soliq to'laydigan identifikatsion raqami (STIR): 207324639.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Muxtarov Sobir Aliga (2021-yil 27-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Ashurov

Quchqorga (2020-yil 9-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Karimov Sharifdjon Saidovichga (2021-yil 29-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Za-

rina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Asamov Norxuja Lutfullayevichga (2023-yil 12-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

**BEKOR QILINADI**

Sotuvchi Oripov Shavkat Obidovich va sotib oluvchi Sayfidinov Laziz Faxridinovichlar o'rtasida Samarqand tumani "Yuqori Chordara" MFY, Do'stlik ko'chasi, 339-sonli uy turidagi ko'chmas mulk uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasidan 2024-yil 29-iyulda tasdiqlanib, Ksh 150180 SA blankada tuzilgan, 202401714004425 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

